



NAVOIY VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar-mart*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Тел. 79-223-50-43*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1-aprel holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 5 937 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 9 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5 928 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-mart oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 2 563,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 107,0 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 194,6 mlrd. so'mni (115,7 % ni tashkil qildi) kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 2 368,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 106,3 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 167,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 116,9 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	2 563,2	107,0
Navoiy sh.	599,3	104,1
Zarafshon sh.	294,6	112,0
G'ozg'on sh.	24,1	105,8
<i>tumanlar</i>		
Konimex t.	85,9	108,7
Qiziltepa t.	329,8	107,1
Navbahor t.	155,6	103,9
Karmana t.	447,2	105,4
Nurota t.	113,7	109,2
Tomdi t.	28,5	115,3
Uchquduq t.	134,0	105,7
Xatirchi t.	350,5	110,1

2024- yilning yanvar-mart oylarida 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan viloyatning Tomdi tumani (115,3 %), Zarafshon shahri (112,0 %) va Xatirchi tumani (110,1 %) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-mart)




So'nggi 5 yillikda (2020 – 2024 - yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda (113,0 %) kuzatildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi 2 563,2 mlrd . so'mni tashkil etib 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 107,0 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining ulushi , 2024 yil yanvar-mart (foizda)



Ulushi, foizda




Navoiy viloyatida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Navoiy shahri 23,4 % bilan 599,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Navoiy viloyatida chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, G'ozg'on shahri 0,9 % bilan 24,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Navoiy viloyatida chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.


Hajmi, mlrd. so'm






Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o‘shish sur‘atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko‘ra, 2 368,6 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023–yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 6,3 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 92,4 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o‘shish sur‘atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 115,7 % ni tashkil etdi va 194,6 mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 7,6 % ulushiga to‘g‘ri keldi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha, G'ozg'on shahri (99,8 %), Uchquduq tumani (99,5 %), Tomdi tumani (99,2 %) yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 7,6 % ni tashkil etib, eng katta ulush Navoiy shahri (19,5 %), Zarafshon shahri (12,2 %), Navbahor tumanida (11,1 %) kuzatildi.

7,6 %



92,4 %




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*



2024- yilning yanvar-mart oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2 378,6 ming. so'mni (2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 105,0 %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Navoiy shahri (3 698,7 ming. so'm), Uchquduq tumani (3 401,7 ming. so'm) va Zarafshon shahri (3 325,0 ming. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.




Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

Izoh: Navbahor, Tomdi, Uchquduq tumanlarida va Navoiy, Zarafshon shaharlarida chorva bozori mavjud emas. G'ozg'on shahrida dexqon va chorva bozori mavjud emas,



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	167,6	116,9
Navoiy sh.	37,2	117,3
Zarafshon sh.	6,1	112,8
G'ozg'on sh.	-	-
<i>tumanlar</i>		
Konimex t.	9,2	116,1
Qiziltepa t.	16,4	114,4
Navbahor t.	1,8	113,2
Karmana t.	51,9	119,1
Nurota t.	10,2	105,5
Tomdi t.	1,2	108,9
Uchquduq t.	3,8	114,4
Xatirchi t.	29,8	120,7


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.


Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari

(2024- yil yanvar-mart)

Izoh G'ozg'on shahrida bozorlar mavjud emas














Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024- yil yanvar-mart)



Viloyat bo'yicha 2024- yilning yanvar-mart oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 167,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 116,9 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lu-motlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 89,2 mlrd. so'mni (116,4 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 78,4 mlrd so'mni tashkil etdi (117,6 %).













2024- yilning yanvar-mart oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 89,2 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>49,5 mlrd. so'm</p>  <p>55,5 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>9,4 mlrd. so'm</p>  <p>10,5 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>6,6 mlrd. so'm</p>  <p>7,4 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>2,9 mlrd. so'm</p>  <p>3,2 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>4,4 mlrd. so'm</p>  <p>4,9 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>2,6 mlrd. so'm</p>  <p>2,9 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>2,7 mlrd. so'm</p>  <p>3,1 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...)</p> <p>4,4 mlrd. so'm</p>  <p>4,9 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>0,9 mlrd. so'm</p>  <p>1,0 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>4,7 mlrd. so'm</p>  <p>5,3 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)</p> <p>1,1 mlrd. so'm</p>  <p>1,3 %</p>	

2024- yilning yanvar-mart oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 78,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 63,9 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 13,9 mlrd. so'mni, otlar – 0,2 mlrd. so'mni, parrandalar – 0,1 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>38,9 mlrd. so'm</p>  <p>49,7 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>12,8 mlrd. so'm</p>  <p>16,3 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>12,2 mlrd. so'm</p>  <p>15,6 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>10,3 mlrd. so'm</p>  <p>13,0 %</p>	<p>Otlar</p> <p>0,2 mlrd. so'm</p>  <p>0,3 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>3,6 mlrd. so'm</p>  <p>4,6 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>0,1 mlrd. so'm</p>  <p>0,2 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>0,1 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Quyونlar</p> <p>0,1 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0,05 mlrd. so'm</p>  <p>0,05 %</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1-aprel holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 087 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 086 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	104,6	101,6
Navoiy sh.	33,5	99,6
Zarafshon sh.	15,8	127,2
G'ozg'on sh.	0,4	108,1
<i>tumanlar</i>		
Konimex t.	1,8	106,8
Qiziltepa t.	6,6	83,9
Navbahor t.	14,3	87,1
Karmana t.	18,3	105,6
Nurota t.	1,4	102,2
Tomdi t.	0,4	102,1
Uchquduq t.	4,2	103,1
Xatirchi t.	7,9	106,7

2024- yilning yanvar-mart oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 104,6 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 101,6 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 90,0 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Navoiy viloyati	868,7	100,0
Navoiy sh.	642,4	73,9
Zarafshon sh.	2,9	0,3
G'ozg'on sh.	-	-
<i>tumanlar</i>		
Konimex t.	2,3	0,3
Qiziltepa t.	9,5	1,1
Navbahor t.	1,9	0,2
Karmana t.	199,8	23,0
Nurota t.	2,9	0,3
Tomdi t.	0,1	0,1
Uchquduq t.	2,8	0,3
Xatirchi t.	4,1	0,5


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Navoiy shahri (642,4 mlrd. so'm), Karmana tumanida (199,8 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so‘m)




2024- yilning yanvar-mart oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 868,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 132,7 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 379,5 mlrd. so‘m (o'sish sur'ati – 127,1 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 489,2 mlrd. so‘mni (o'sish sur'ati – 137,3 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-mart oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 676,6 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 8,4 % ga o‘ydi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 591,9 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 117,3 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 87,5 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlari Konimex tumani va Uchquduq tumanida kuzatildi.

2024- yil 1-aprel holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 1 504 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 6 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 498 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	676,6	108,4
Navoiy sh.	320,8	105,2
Zarafshon sh.	32,3	120,4
G'ozg'on sh.	0,01	118,7
<i>tumanlar</i>		
Konimex t.	1,8	111,1
Qiziltepa t.	84,2	115,1
Navbahor t.	25,2	74,3
Karmana t.	144,1	113,4
Nurota t.	10,1	131,2
Tomdi t.	1,2	128,6
Uchquduq t.	25,5	116,8
Xatirchi t.	31,4	119,6